

Abduraimova Charos Farxod qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi

**MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI TA'LIM JARAYONIDA
O'RNI**

Annotatsiya: muammoli o'qitish texnologiyasining mazmunini, uni amalga oshiruvchi omillari tashkil etadi. Bu omillar - muammoli vaziyat, muammoli ta'limning pedagogik shart- sharoitlari, muammoli ta'limni amalga oshiruvchi metodlar va muammoli ta'limning o'quv motivlari tashkil etadi.

Kalit so'zlari: muammoli o'qitish, Dars, Didaktika, pedagogik-psixologiya, intellektual mashqlar, kreativ fikirlash, metodlar.

Абдураимова Чарос Фарходовна

Студент Ташкентского международного химического университета
**РОЛЬ ПРОБЛЕМНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

Аннотация: содержание технологии проблемного обучения, факторы ее реализации. Такими факторами являются проблемная ситуация, педагогические условия проблемного обучения, методы реализации проблемного обучения и воспитательные мотивы проблемного обучения.

Ключевые слова: проблемное обучение, Урок, Дидактика, педагогико-психология, интеллектуальные упражнения, творческое мышление, методы.

Abduraimova Charos Farxod kizi

Student of Tashkent International University of Chemistry
**THE ROLE OF PROBLEM-BASED EDUCATIONAL TECHNOLOGY
IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

Annotation: the content of problematic teaching technology, the factors that make it possible. These factors are the problem situation, pedagogical conditions

of problem education, methods that carry out problem education and educational motives of problem education.

Keywords: problem teaching, lesson, didactics, pedagogical-psychology, intellectual exercises, creative thinking, methods.

Muammoli ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Ushbu metodikaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, inson tafakkuri dastlab muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida shakllanadi, shu bilan birga u muammolarni aniqlash, ularni tadqiq qilish va samarali yechimlar topish qobiliyatiga ega. Muammoli ta'lim usullari talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyati, kreativlik darajasi va mustaqil tahlil qilish mahoratini sezilarli darajada oshiruvchi pedagogik vosita sifatida tan olingan. Bu usullar aqliy faoliyatni rag'batlantiruvchi, shaxsni faol va izchil fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllantiruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalari qatoriga kiradi. Buning asosiy sababi muammoli ta'limning faol shaxsni tarbiyalash maqsadiga mos kelishi va bilimni amaliy kontekstda qo'llashga yo'naltirilganligidadir. "Muammo — bu hal qilinishi, yechimi topilishi lozim bo'lgan masala yoki murakkab vaziyatdir". Ta'limdagi muammo deganda esa, o'quv jarayonida uchraydigan, o'qituvchi va talaba oldida turgan hal qilinishi zarur bo'lgan vaziyatlar, savollar yoki muayyan bilim va ko'nikmalarni egallashga to'sqinlik qiluvchi holatlar tushuniladi.

Muammo - javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va yechish usuli noma'lum masala. Muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlar doirasidan chetga chiqish, yangicha yechish usullari, metodlarni qidirish taqozo qiladi.

Muammoli ta'limning asosiy vazifasi-talabalarni o'rganilayotgan fan yoki mavzudagi muammoni chuqur anglash, uning ildizlarini tahlil qilish va optimal yechimni izlash jarayoniga faol jalb qilishdir. Bu jarayon nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki talabalarni real hayotdagi qiyinchiliklarga tayyorlashga ham xizmat qiladi. Maxsus tashkil qilingan faoliyatning o'zini o'zgartirish uchun tashkil etilgan bo'lagi o'qish faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'qishning

muhim qismi dars jarayonidagi topshiriqlar hisoblanadi. Darhaqiqat, kasbiy shakllantirish jarayonidagi muhim aqliy harakatlar tizmi o'quv faoliyati bo'lib bu o'zini-o'zi talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga bo'lgan yondoshuvlar muhim hisoblanadi. Tadqiqotchi olim V.Davidovning fikricha, shaxsning o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi omillar bilan belgilanadi. Shaxsiy ehtiyojlar, berilgan o'quv topshiriqlari, motivatsiyon ommilar, amaliy harakatlar ketma-ketligi. Ayniqsa, ma'lumotlarni faol qabul qilish, mustaqil tadqiqot olib borish va ijodiy yechimlar topish bosqichlari zamonaviy ta'limda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhim hisoblanadi. Ushbu bosqichlar talabalarni faol o'rganuvchiga aylantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Muammoli ta'limning asosiy g'oyasi —talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni mavzu doirasidagi muammoli vaziyatlar orqali bilimni mustaqil izlash, o'zlashtirish va qo'llash jarayoniga jalb qilishdan iborat.

Jon Dyui (1859-1952)ning pedagogik g'oyalari. Ta'lim bolaning "tabiiy ehtiyojlari" (kashfiyotchi instinkti, ijtimoiy aloqaga intilish) asosida tashkil etilishi kerak. Chikago eksperimental maktabi (1894): Dyui bu yerda bolalarni amaliy mehnat (qurish, loyihalash), badiiy ifoda (san'at orqali o'zini namoyon qilish) va tadqiqot faoliyati (ilmiy kashfiyotlar)ga jalb qiluvchi to'rtta innovatsion modelni amalga oshirdi. Bularga ijtimoiy aloqalar(jamoadada ishlash), konstruktiv faoliyat (materiallar bilan tajriba o'tkazish), badiiy ifoda(tasviriy san'at vositalari orqali fikr bildirish), tadqiqotchilik(noma'lumni o'rganish) Dyui asosan nazariyaga emas, "amaliy faoliyat" asosiy o'rin egallashini ta'kidlagan bo'lib bolaning faolligi o'qituvchi rolida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, talaba esa bilimni spontan va tabiiy tarzda egallaydi.

Muammoli ta'limning keyingi rivoji XX asrning 60-yillarida S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon kabi olimlar Dyui g'oyalarini rivojlantirib, muammoli ta'limning psixologik va pedagogik asoslarini yaratdilar. Psixologik tamoyil fikrlash jarayoni muammoli vaziyat bilan

boshlanadi, pedagogik tamoyil talabaning izlanish faoliyati (ma'lumotlarni tanlash, gipoteza ishlab chiqish) asosiy o'rinda turishini ta'kidlagan. M.I.Maxmutovning kontseptsiyasining asosi 1975-yilda nashr etilgan "Muammoli ta'lim nazariyasi" asarida muammoli ta'lim tizimli pedagogik model sifatida qaralishi hamda "Muammoli ta'lim – bu talabalarning o'qituvchi muammoli vaziyat sharoitida tushuntirganlarini idrok etish yo'li bilan bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirishga doir muammoli vaziyatlarni mustaqil (yoki o'qituvchi yordamida) tahlil qilish, muammolarni ta'riflash va ularni takliflar, farazlar vositasida (mantiqiy va intuitiv) ravishda asoslash va isbotlash, shuningdek yechimlarning to'g'riligini tekshirish yo'li bilan hal qilishga oid o'quv-bilish faoliyatidir" kabi fikrlarni ilgari suradi. Maxmutov o'quv jarayonida muammoli vaziyatlarni tashkil etishning 3 bosqichli modelini taklif qildi bu modeli bugungi kunda STEM ta'limida keng qo'llaniladi.

Muammoli o'qitish usuli – bu talabalarning muammoli shaklda berilgan o'quv material bilan faol hamkorlik qilishini ta'minlovchi jarayondir. Ushbu metodika davomida talabalar ilm-fan sohasidagi ob'yektiv ziddiyatlar va ularning echimlari bilan tanishib, mantiqiy tafakkur va bilimlarni ijodiy o'zlashtirish ko'nikmalarini egallaydi. Ilmiy adabiyotlarda muammoli o'qitish tushunchasi bilan bog'liq holda "muammo" va "muammoli vaziyat" atamalari ko'p uchraydi. Ba'zan ular bir ma'noli deb qaralsa-da, aslida bu atamalar turlicha mohiyatga ega. Muammo – muayyan tartibda joylashtirilgan muammoli masalalar majmuidan iborat. Shuning uchun muammoli masalani muammoning aniqroq va soddalashtirilgan ko'rinishi deb tushunish mumkin.

Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy jihatlari va ahamiyati shundan iboratki, muammoli ta'lim texnologiyalarini barcha fan sohalarida samarali qo'llash imkoniyati berilishi bilim olish jarayoning jadallashishiga va har qanday yosh guruhidagi talabalar uchun moslashtirish imkonini beradi. Ajdodlarimiz qoldirgan pedagogik qarashlari, G'arb pedagogikasining nazariy asoslari va XX asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy izlanishlar orqali muammoli

ta'lim yanada evolyutsiyaga yuz tutdi bu bilim olish jarayonining yanada mukammallashtirishiga olib keladi. O'zbekistonda muammoli talim texnologiyalari STEAM ta'lim dasturlarida integratsiyaning oliy o'quv yurtlarida joriy etilishi talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishi, bilimlarni uzoq muddat saqlab qolish samaradorligini oshiradi. Xalqaro miqyosda ta'lim tizimlarida keng qo'llanishi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning asosini bo'lib xizmat qiladi.

Muammoli ta'lim - bu nafaqat bilim olishning samarali usuli, balki yangi avlodni kreativ fikrlashga, innovatsion yechimlar topishga o'rgatuvchi kuchli pedagogik vosita hisoblanadi. Uning kelajakda ham qo'llanishi va takomillashtirilishi O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov, A. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.– T.: O'zbekiston, 2017
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi". - 2006. 200b.
3. Atayeva N.S., Rasulova F., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I kitob. -T .: «Fan va texnologiya», 2012 y, 242-243 betlar
4. Ashurova, S. Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion usullar.– T.: TDPU, 2015
5. Бабанского Ю.К. Педагогика Под ред. – Москва, Просвещение, 1989.
6. Babanskiy, Yu.K. Ta'lim jarayonini optimallashtirish. – M.: Prosvesheniye,